



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

OTA-ONA VA FARZAND O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA VIRTUAL-PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xaydarova Khilola Rahimberdiyevna
Qo'qon universiteti Andijon filiali, dotsent

Annotatsiya

Maqolada ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarda ongli filtrlash orqali virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirishning dolzarb masalalari o'rganilgan. Shuningdek, ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirish orqali ta'lim-tarbiyadagi ma'naviy-axloqiy muammolar keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ota-ona, farzandlar, ongli filtrlash, oila, maktab, mahalla, tarbiya, madaniyat, virtual, media, axborot, kompyuter, savodxonlik, virtual nazorat, farzandlar..

РАЗВИТИЕ ВИРТУАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ

Хайдарова Хилола Раҳимбердиевна
Андижанский филиал Кокандского университета, доцент

Аннотация

В статье рассмотрены актуальные вопросы развития виртуально-педагогической культуры в отношениях между родителями и детьми на основе осознанной фильтрации. Также подробно проанализированы духовно-нравственные проблемы воспитания через развитие виртуально-педагогической культуры родителей.

Ключевые слова: Родители, дети, осознанная фильтрация, семья, школа, махалля, воспитание, культура, виртуальный, медиа, информация, компьютер, грамотность, виртуальный контроль, дети.

DEVELOPING VIRTUAL PEDAGOGICAL CULTURE IN PARENT-CHILD RELATIONSHIPS

Khaydarova Khilola Rahimberdiyevna
Andijan Branch of Kokand University, Associate Professor

Abstract

The article examines current issues of developing virtual pedagogical culture in parent-child relationships through conscious filtering. It also provides a broad analysis of moral and ethical problems in education through the development of parents' virtual pedagogical culture.

Keywords: Parents, children, conscious filtering, family, school, mahalla, upbringing, culture, virtual, media, information, computer, literacy, virtual control, children.

Dunyo rivojlanishining asosiy tendensiyalari orasida axborotlashgan jamiyatga o'tish muhim vazifa hisoblanadi, ya'ni jamiyatning barcha jabhalarida virtual vositalarining ta'siri dolzarb sanaladi. Bunda o'zaro cheksiz axborot almashishning kengayishi, ijtimoiy-madaniy integratsiyalashuvning chuqurlashishi va intensivlashishi holatida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish, uning uslubiy ta'minotini yana-da kengaytirish zarurati mavjud ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bugun ijtimoiy tarmoqlar shu darajada hayotimizga, turmush tarzimizga singib ketmoqdaki, natijada biz o'z hayotimizni yengillashtirishimiz uchun mo'ljallangan narsalar asta-sekin bizni boshqaradigan omilga aylanib bormoqda. Bu holat boshida insonlarda shubhalanishni keltirib chiqargan bo'lsa, bugungi kunda o'z ta'sirini o'tkaza olgan insonlar uchun yana-da rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, bu holat bugungi kun yoshlarining dunyoqarashi, fikrlashi, tarbiyasi, xulq-atvorida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ostida yoshlar o'zini rivojlantirishni unutishadi. Yoshlar kompyuterda ko'p vaqt sarflashlari sababli ular juda kam harakat qiladilar. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotidan sportni, sayr qilishni va haqiqiy munosabatlarni siqib chiqarmoqda. Ba'zi yoshlarda esa ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik belgilarini sezish mumkin. Telefon, Telegram, Instagramda uzoq o'tirib yoshlar vaqtni, bezovtalikni unutishadi, charchoqni sezishdan to'xtashadi, sog'ligini asrab-avaylash, uni saqlab qolish haqida o'ylashni unutishadi.

Ijtimoiy tarmoqlar vositasida tarqatilayotgan axborot oqimining nihoyatda tezkor, rang-barang va ko'p hollarda nazoratsiz xarakter kasb etishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, xulq-atvori hamda ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlar turli ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoplatformalar va bloglar orqali juda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan to'qnash kelmoqda. Biroq ularning barchasi ham ilmiy asoslangan, tarbiyaviy ahamiyatga ega, ishonchli va foydali axborot hisoblanmaydi. Aksincha, ayrim axborotlar noto'g'ri talqin qilingan, biryoqlama yoritilgan, manipulyativ xarakterga ega yoki yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Ana shunday sharoitda yoshlarning axborotni tanlash, saralash, tekshirish, tahlil qilish va unga nisbatan mustaqil munosabat bildirish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi ularning noto'g'ri xulosalarga kelishi, soxta g'oyalar ta'siriga tushib qolishi hamda ijtimoiy hayotda adashishiga sabab bo'lmoqda.

Ayniqsa, mustaqil va tanqidiy dunyoqarashning yetarli darajada rivojlanmaganligi yoshlarning virtual muhitdagi axborotlarga ishonuvchanlik bilan yondashishiga olib keladi. Bunday holatda ular internetda uchraydigan har qanday xabar, chaqiriq, reklama, fikr yoki tasvirni chuqur tahlil qilmasdan qabul qiladi. Natijada yoshlar orasida turli zararli axborotlarga berilish, vaqtni samarasiz sarflash, virtual qaramlikka moyillik, oilaviy va ijtimoiy qadriyatlardan uzoqlashish, real muloqot madaniyatining susayishi kabi muammolar yuzaga keladi. Bu esa nafaqat ta'lim-tarbiya jarayoniga, balki oilaviy muhit, mahalla hayoti va jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yoshlarni virtual axborot makonida to'g'ri yo'naltirish, ularda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, raqamli xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur muammolarning samarali yechimi, avvalo, ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Chunki bola va yoshlarning internetdan foydalanish madaniyati, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati, axborotga munosabati ko'p jihatdan oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-onaning nazorati, maslahat berish uslubi hamda shaxsiy namunasi orqali shakllanadi. Agar ota-ona virtual muhitning imkoniyatlari va xavf-xatarlarini yetarlicha anglamasa, farzandining internetdagi faoliyatini faqat taqiqlash yoki cheklash orqali boshqarishga harakat qilsa, bu kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, ota-onalar raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, media savodxonlik va virtual muloqot madaniyati bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Shundagina ular farzandlariga virtual makonda ongli, mas'uliyatli va xavfsiz harakat qilishni o'rgata oladilar.

Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati deganda ularning raqamli muhitda farzand tarbiyasini to'g'ri tashkil eta olish, internet resurslaridan maqsadli foydalanish, zararli axborotlarni aniqlash, bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, virtual muloqot odobini shakllantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bilim, ko'nikma, qadriyat va amaliy faoliyatlar majmui tushuniladi. Bu madaniyat ota-onalarning faqat texnik savodxonligi bilan cheklanmaydi, balki ularning pedagogik mas'uliyati, psixologik sezgirligi, kommunikativ yondashuvi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy pozitsiyasini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularning sog'lom dunyoqarashini shakllantirish va oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Biroq amaliyotda ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatda bir qator muammolar ko'zga tashlanadi. Jumladan, ayrim ota-onalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim va tajribasi yetarli emasligi, farzandlarining virtual muhitdagi qiziqishlari va ehtiyojlarini chuqur tushunmasligi, internet xavfsizligi bo'yicha aniq pedagogik tavsiyalarga ega emasligi kuzatiladi. Bundan tashqari, oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning tizimli yo'lga qo'yilmaganligi ham ushbu yo'nalishdagi ishlarning samaradorligini pasaytiradi. Ko'p hollarda ta'lim muassasalari yoshlarning raqamli madaniyatini shakllantirish bilan shug'ullansa-da, bu jarayon oiladagi tarbiyaviy yondashuv bilan

uzviy bog‘lanmaydi. Mahalla esa tarbiyaviy nazorat va ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishda yetarli darajada faol mexanizm sifatida namoyon bo‘lmaydi.

Shu bois axborotlashgan jamiyat sharoitida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish alohida ilmiy-pedagogik zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunda xalqaro tajribalarni o‘rganish, ilg‘or pedagogik yondashuvlarni milliy tarbiya tizimiga moslashtirish, informatsion axborot resurslaridan samarali foydalanish, milliy qadriyatlar asosida virtual tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Xususan, ota-onalar uchun media savodxonlik, internet xavfsizligi, farzandlar bilan raqamli muloqot, ijtimoiy tarmoqlarda madaniyatli munosabat, zararli kontentni aniqlash va oldini olish bo‘yicha maxsus o‘quv-seminarlar, treninglar, metodik qo‘llanmalar hamda elektron maslahat platformalarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, oila, uzluksiz ta‘lim muassasalari va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish zarur. Bu hamkorlik faqat umumiy tarbiyaviy tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, aniq diagnostika, monitoring, maslahat, profilaktika va metodik qo‘llab-quvvatlash tizimiga asoslanishi lozim. Ta‘lim muassasalari ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-metodik markaz vazifasini bajarishi, mahalla esa oilalar bilan bevosita ishlash, ijtimoiy muhitni o‘rganish va tarbiyaviy hamkorlikni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Oila esa farzandning virtual muhitdagi faoliyatini nazorat qiluvchi emas, balki uni ongli, tanqidiy va mas‘uliyatli axborot iste‘molchisi sifatida tarbiyalovchi asosiy tarbiyaviy institut sifatida faol ishtirok etishi lozim.

Bundan tashqari, ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini baholash imkonini beruvchi sotsiometrik shkala va integral diagnostik parametrlarni ishlab chiqish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday diagnostik vositalar ota-onalarning raqamli savodxonligi, axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlari, farzandlar bilan virtual muloqot madaniyati, ijtimoiy tarmoqlardagi tarbiyaviy nazorat usullari, milliy qadriyatlarga tayangan pedagogik pozitsiyasi hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi ishtirokini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur mezonlar asosida ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati darajasini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularga mos metodik yordam ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi.

Mavzuning dolzarbligi. Olib borilgan tadqiqotimizdan ma‘lumki, aynan virtual-pedagogik madaniyat o‘ziga xos regulatsiya tizimi sifatida insonlar hayotini tartibga solishi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu yondashuvga asoslanib aytish mumkinki, virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirish asosida jamiyatda o‘ziga kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq ma‘naviy-axloqiy muammolarni hal etish yoki tartibga solish obyektini kompyuter vositasi hamda o‘zaro virtual muloqot jarayonida shaxslarning ratsional faoliyati va xatti-harakatidan iborat bo‘ladi.

Mamlakatimizda ham ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish muammolarini chuqur o‘rganish va tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar ochib berilgan. Bu ijtimoiy fanlar, xususan pedagogika fani oldiga virtual reallikka xos bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy va pedagogik mezoniy tushunchalar, ta‘lim va tarbiya me‘yorlarining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish va hayotga ularni yana-da chuqurroq joriy qilish kabi vazifalarni belgilab beradi. Aynan virtual reallikka xos bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy va pedagogik tamoyillarning rivojlanishi yoshlarning nafaqat ijtimoiy, ma‘naviy, axloqiy, balki ta‘lim borasidagi ehtiyojlarini qondirishga ham xizmat qiladi.

Mavzu bo‘yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalalari va ular bilan bog‘liq muammolar: yoshlar ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashining xavfsizligini ta‘minlash, ularda atrofdagi jarayon va hodisalarga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishga barcha davrlarda alohida e‘tibor qaratilgan.

Uzoq tarixga nazar soladigan bo‘lsak, “Virtual” so‘zi lotin so‘zidan kelib chiqib “vir”, ya‘ni erkak so‘zini anglatgan. Rimliklar “vir” so‘zidan yangi “virtus”ni keltirib chiqaradi va bu so‘z erkaklarga xos bo‘lgan barcha fazilatlarini namoyon qila olgan: jasur, kuchli, jasoratli, axloqiy xulq-atvor fazilatlariga ega. “Virtus” ushbu fazilatlarining barchasi bir shaxsda namoyon bo‘lganda ishlatilgan. “Virtus” ma‘budasi ham aynan ushbu talqin asosida qadimgi Rim mifologiyasida shu nomga ega bo‘lganini aytish mumkin. Keyinchalik lotin tilidan fransuz tiliga, XIII asrda fransuz tilidan ingliz tiliga kirib borgan.

Kompyuter texnologiyalari insonlar hayotiga keng kirib borishi bilan ingliz tilida bu so‘z

“virtual” shaklida “haqiqiy hayotda mavjud emas, lekin dasturiy ta’minot tufayli paydo bo’ladi” degan ma’noga ega bo’ldi. Kompyuter texnologiyalari rivojlangan yangi davrga kelib virtuallik haqiqiy va xayoliy (yoki qurilgan) dunyo o’rtasidagi farq chegarasini yo’qotadigan ma’lum bir holat sifatida tushuniladi. Virtuallik haqidagi ushbu tushuncha pedagogika, psixologiya, etika, estetika va umuman madaniyatda ham qo’llanilib keladi.

Virtuallik – (lot. Virtualis bo’lishi mumkin) xayoliy obyekt yoki holat bo’lib, haqiqatan ham mavjud emas, lekin ma’lum sharoitlarda paydo bo’lishi mumkin, ya’ni haqiqiy voqelikdagi kabi faqat elektron axborot texnologiyalari yordamida muloqot qilish, axborot almashish, axborotlashish demakdir.

Asosiy tahlil va natijalar. Tadqiqotimizda axborot iste’molchisi sifatida ota-ona, yoshlar xulq-atvori va shu asosida shakllangan ko’nikmalar, virtual olam ishtirokchisi sifatida ota-ona va yoshlar talqinida virtuallik, madaniyat va virtual-pedagogik madaniyat uyg’unlashuvi tushunchalarining rivojlanishiga xos jihatlari o’rganildi. Media iste’molchisi sifatida tobelik holatlari, ota-ona va yoshlarning axborot ehtiyojlarida virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirishda ongli filtrlashtirish asosiy omil sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqot natijasida ota-onalar va yoshlar fikridan kelib chiqib, virtual olamda ota-onalarning farzandlariga nisbatan 3 toifasini aytish mumkin:

Birinchisi, har qanday holatda ham farzandlariga kompyuterdan, elektron axborot vositalaridan foydalanishni, turli virtual o’yinlarni o’ynashni, umuman internetga kirishni qat’iy cheklaydi;

Ikkinchisi, virtual muloqotlar, o’yinlar, axborot almashinuvida ma’lum bir vaqt chegaralarini qo’yadigan ota-onalar;

Uchinchisi, hech qanday holatda ham farzandlarining kompyuter vositalaridan foydalanishini cheklamaydi, qancha xohlasa shuncha vaqt foydalanish imkoniga ega farzand. Internet, virtual olam orqali ushbu ota-onaning farzandi barcha ma’lumotlarni o’z xohlaganicha, xohlagan vaqt mobaynida o’tiraveradi.

Ushbu toifadagi ota-onalarning farzandlarining virtuallashishida salbiy va ijobiy tomonlarini ko’rib chiqadigan bo’lsak.

Birinchi toifadagi ota-onaning farzandi zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarini kerak bo’lganda ishlata olish ko’nikmalariga ega bo’la olmaydi. Birinchi urinishdayoq feyk ma’lumotlarga, infologema kabi holatlarning qurboniga aylanish ehtimoli juda katta. Bu kabi holat ham o’z navbatida yoshlarning axborotlashishida muammolarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi.

Ikkinchi holatda, ota-ona farzandiga ma’lum chegaralarni qo’yishi ham salbiy va ijobiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ijobiy holati shundaki, yoshlar o’ziga belgilangan vaqt mobaynida kerakli mavzularni olishga, o’zini qiziqtirgan masalalarda unumli foydalanishga harakat qiladi. Ota-ona nazoratini his qilib turadi va virtual olamda keraksiz maqsadlarda foydalanishga jur’at etmasligi mumkin.

Salbiy holati shundan iboratki, yoshlar nazorat mavjud bo’lganligi sababli nazoratdan chiqishga harakat qiladi. Boshqalar singari ish tutishga harakat qiladi, ya’ni belgilangan vaqt chegarasida virtual olamning boshqa qirralarini ochishga harakat qiladi. Vaqt chegarali bo’lganligi sababli u tezlikda virtual olamning sirlarini o’rganishga harakat qiladi va o’z navbatida turli feyk, infologema qurboniga aylanishi mumkin. Ya’ni ota-onasining nazoratini o’ziga nisbatan ishonchsizlik deb qabul qilib, ota-ona oldida farzandning obro’sizligi, boshqalar farzandiga ishonadi, mening ota-onam esa menga ishonmaydi, kompyuter moslamasidan foydalanishda chegara qo’yadi, deya o’zida ota-onasiga nisbatan qarama-qarshi munosabatlar va fikrlar rivojlanib boradi. Bu holatda ham ota-ona yoshga nisbatan ehtiyotsizlik qilib qo’yishi mumkin va bu yoshlarni turli guruhlarga, yomon illatlarni rivojlantiruvchi, ularning ota-onasiga qarshilik qilayotganini qo’llab-quvvatlovchi guruhlar ta’siriga tushib qolishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi holat esa yoshlarning erkin bo’lishiga yordam beradi. Ushbu ota-onaning farzandi elektron axborot texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini bilishi, internet olami, virtual o’yinlar, yangi texnologiyalarning yangi imkoniyatlari haqida barcha narsalarni bilishi mumkin. Lekin aynan gap ham mana shu barcha imkoniyatlari virtual olam orqali berib borilayotgan axborotlarda. Yoshlar virtual olamni, umuman elektron vositalardan foydalanishni kattalarga ham qaraganda tezda va yaxshi o’zlashtiradi. Internet tarmog’i orqali yirik ma’lumotlar bazasi sekund sayin o’zgaradi. Juda katta ma’lumotlar bazasi shakllanadi, virtual olamda muloqot qilinganda, virtual o’yinlarni o’ynash orqali yoki biror bir axborotni nusxa ko’chirish va yana boshqa xatti-harakatlarni amalga oshirganimizda biz haqimizda ma’lumotlar bazada to’planib boradi.

Biror bir ma’lumot izlab virtual olamga kirgan yoshlarning qiziqishlari asosida o’yinlar, axborotlar ekran chetidan chiqib kelaveradi, yoshlar aynan shu kabi ma’lumotlarga qiziqib boradi. Chunki bu ma’lumotlar, reklamalar, axborotlar ushbu insonning qiziqishlarini algoritmlar orqali o’rganilib, har

doim uni jalb qilish uchun ekran oynalarida namoyon bo‘laveradi. Bu holatda yoshlar o‘z miyasini kerakli ma’lumotlardan ko‘ra keraksiz ma’lumotlar bilan to‘ldirib qo‘yadi, o‘zi uchun muhim bo‘lgan insoniylik, axloqiylik, bilimga intiluvchanlik holatlari sekin-asta yo‘qolib boradi. Chunki uning uchun o‘zi topgan olam qiziqarli bo‘lib boraveradi, u o‘zini ana shu olamda xotirjam sezadi, yutuqlarga ega bo‘ladi, sekin-asta virtuallik uning hayot mazmuniga aylanib boradi.

Xulosa. Kelajak avlod ma’naviyatini rivojlantirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni yurtiga sodiq, sadoqatli insonlar qilib tarbiyalash muhim pedagogik jarayon sifatida “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida muhim o‘rin egallaydi. Ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyatini rivojlantirish sohasini yanada takomillashtirish zarurati asosida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ota-onalarda virtual madaniyat haqidagi tasavvurlarni yetarli darajada rivojlantirish, ayni vaqtda ularda virtual axborot almashinuv ko‘nikmalarini samarali tarzda rivojlantirish zarur deb o‘ylaymiz. O‘sib kelayotgan yosh avlodning turmush tarzi va hayotiy mazmuniga aylanib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlardagi ishtirokini esa ongli filtrlashtirish orqali singdirib borish kerak. Bugungi kunda ongli filtrlashtirish zaruriyati ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda, axborot ehtiyojlarida hamda ularda virtual-pedagogik madaniyatni rivojlantirish masalalari doimiy dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolaveradi. Bu esa biz tadqiqotchilarga ongli filtrlashtirish usullarini ishlab chiqish, axborot dasturiy ta’minoti platformasini yaratish hamda jamoatchilik markazlarida keng targ‘ibot-tashviqot qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1059-sonli qaror. – 31 dekabr, 2019.
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2016. – B. 14.
3. Леушкин Р. В. Виртуальный объект как проблема конструктивного реализма // *Фундаментальные исследования*. – 2014. – № 6. – URL: <http://www.etymonline.com/index.php?term=virtual>
4. (дата обращения: 28.04.2026).
5. Грицанов А. А., Галкин Д. В., Карпенко И. Д. Виртуальная реальность // *Новейший философский словарь / сост. и гл. науч. ред. А. А. Грицанов*. – 3-е изд. – Мн.: Книжный Дом, 2003. – С. 171–173. – 1280 с. – ISBN 985-428-636-...
6. Quronov M. va boshqalar. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya: ommabop risola. – T.: “Mahalla ziyosi” respublika o‘quv-uslubiy markazi, 2015. – B. 72.
7. Хайдарова Х. Р. Критерии развития родительской педагогической культуры // *Экономика и социум*. – 2021. – № 12 (91)-2. – С. 677–681.